

HUQUQBUZARLIKLARNING IJTIMOY PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA MAHALLA YETTILIGI BILAN HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Xalilov Javohir Abdurahim o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi
kursanti Javohirhalilov783@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasiga qaratayotgan e'tibori va ular Huquqbuzarliklar profilaktika xizmatini asosiy bo'g'in sifatida e'tirof etayotganliklarini va bugungi kunda ijtimoiy yordamga muhtoj axoli qatlami bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni kun sayin ortib borayotganligi sababli profilaktika inspektorlari ular o'rtasidagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishda mahalla yettiligi bilan hamkorlikdagi kuzatilayotgan kamchiliklar va ularni zamonaviy yechimlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Profilaktika, Umumiy, Maxsus, Yakka va Viktimologik Profilaktika, Ijtimoiy profilaktika, Mahalla yettiligi, Ichki va Idoralararo Hamkorlik, Strategik rejalar.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается внимание, которое сегодня уделяет социальной профилактике правонарушений наш президент Шавкат миромонивич Мирзиеев, и что они признают службу профилактики правонарушений в качестве ключевого звена, и что сегодня, поскольку число правонарушений, связанных с социально нуждающимся слоем населения, растет с каждым днем, инспекторы профилактики участвуют в проведении социальной профилактики правонарушений между ними. наблюдаемые недостатки сотрудничества с соседней семеркой и их устранение речь идет о современных решениях.*

Ключевые слова: *Профилактика, Общая профилактика, Специальная профилактика, Индивидуальная профилактика, Виктимологическая профилактика, Сотрудничество с образовательными учреждениями, Внутреннее и межведомственное сотрудничество, Стратегические планы, Правонарушения среди студентов*

Annotation: *This article talks about the attention of our President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev today to the social Prevention of violations and the fact that they recognize the Huquqbuzarlar preventive service as the*



main link and today the number of violations associated with the moral layer in need of social assistance is increasing day by day, preventive inspectors are talking about the shortcomings observed in cooperation with the neighborhood

Keywords: *Prevention, General, Special, single and Victimological Prevention, social prevention , neighborhood seven , internal and interdepartmental cooperation, strategic plans.*

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo'yicha ishlar juda jadal davom ettirilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham katta-katta tashabbuslar olib borilmoqda. Huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish jamiyatda qonuniylikni ta'minlashning asosiy vositasidir. Yoshlar orasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi muhim rol o'ynaydi. Shu bois mahalla yettiligi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish dolzarb vazifadir.¹¹ Xususan, Ijtimoiy profilaktika samaradorligi faqat davlat organlari emas, balki oila, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning faol hamkorligiga bog'liq. Masalan, maktab psixologlari, mahalla faollari, diniy ulamolar va huquq-tartibot organlarining o'zaro hamkorligi yoshlar orasida salbiy holatlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.¹²

Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishda mahalla yettiligi quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

Huquqbuzarliklarning oldini olish

Yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni kamaytirish uchun maktab, kollej va OTMlarda muntazam huquqiy targ'ibot olib borilishi lozim.

☐ **Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish**

Giyohvandlik, chekish, spirtli ichimliklar iste'moli kabi zararli odatlar bilan kurashishda sog'lom hayot tarzini ommalashtirish muhimdir.

☐ **Oila va jamiytdagi tarbiyani kuchaytirish**

Ijtimoiy muammolarning ildizi ko'pincha oiladagi befarqlik yoki noto'g'ri tarbiyada bo'ladi. Shu bois oilalarda farzand tarbiyasi, qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga e'tibor kuchaytirilishi zarur.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.

2 "Huquqbuzarliklar Profilaktikasi" to'g'risidagi qonuni



Kitobxonlik, san'at, teatr, sport orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga imkon berish – bu salbiy ta'sirlardan himoyalashning eng yaxshi vositalaridan biridir.

Bugungi kunda o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish zamonaviy jamiyatda eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri bo'lib, bu boradagi samarali faoliyat mahalla yettiligi faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Mahalla yettiligi nafaqat huquqbuzarlikni oldini olish, balki shaxsning huquqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy normalarga rioya qilish ruhida tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlarni singdirish orqali jamiyatda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda faol ishtirok etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi — bu jamiyatda qonunbuzarliklarning sodir bo'lishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy va tashkiliy chora-tadbirlar tizimidir. U shaxsning huquqiy madaniyatini oshirish, jinoyatga olib keluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan.¹³

Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi haqida Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”VMQ-801-sonli qarorida

“E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi — ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar o'rtasida axborot almashish imkonini beradigan elektron tizim;

ijtimoiy profilaktika tadbirlari — huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatishda amalga oshiriladigan tadbirlar majmui;

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar — mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori;

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar — mehnat organi xodimi, tibbiyot xodimi, maktab direktori va maktab psixologi, inspektor-psixolog, shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarning murojaatiga asosan jalb etiladigan tuman (shahar) darajasidagi tegishli davlat organlari va tashkilotlari xodimlari;

ijtimoiy profilaktika obyektlari — o'ziga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarning ijtimoiy muammolari;

¹³ “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni.



ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar — huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori boʻlgan shaxslar;

ijtimoiy moslashtirish dasturi — ijtimoiy profilaktika obyektlariga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan ijtimoiy profilaktika jarayonida amalga oshiriladigan tadbirlar.¹⁴

Oʻzbekiston tajribasida taʼlim mahalla yettiligi oʻrtasidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Axborot almashish mexanizmining yetishmasligi;

Kadrlar salohiyatining pastligi — psixolog, huquqshunos, ijtimoiy pedagoglar soni va malakasi yetarli emas;

Huquqiy targʻibot ishlarining sustligi — oʻquvchilarning huquqiy madaniyati va masʼuliyat hissi past;

Oilaviy muhit va ijtimoiy beqarorlik — koʻplab huquqbuzarliklar oilaviy muhitdagi beqarorlik bilan bogʻliq boʻlmoqda.

Xulosa: Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi jamiyatda qonun ustuvorligini taʼminlash va fuqarolarning ongini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, axoli orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishda mahalla yettiligi bilan hamkorlikni kuchaytirish katta ahamiyatga ega.¹⁵

"Mahalla yettiligi" — mahallalarda muammolarni joyida hal qilish, fuqarolarga tezkor va manzilli yordam koʻrsatish, jinoyat va ijtimoiy muammolarni ildizidan bartaraf etishga qaratilgan ilgʻor tizimdir. Bu guruh aʼzolari oʻzaro hamkorlikda ishlagan taqdirda, har bir fuqaro eʼtiborsiz qolmaydi va mahallalarda ijtimoiy barqarorlik taʼminlanadi..¹⁶

Bunday hamkorlik quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- muntazam ravishda huquqiy targʻibot va tushuntirish ishlari olib borish;
- psixologik va pedagogik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish;
- xavf guruhiga kiruvchi oʻquvchilar bilan individual ishlash;

4 Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”VMQ-801-sonli qarori.



- sport, madaniy va ijtimoiy loyihalar orqali axolining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;

- ta'lim muassasalarida “Huquqiy bilimlar maktabi”, “Huquqiy maslahat kunlari” kabi loyihalarni joriy etish.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda huquqiy bilimlarni interaktiv shaklda o'rgatish, ijtimoiy tarmoqlarda profilaktik materiallarni keng yoyish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhim omillardandir.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshirishda mahalla yettiligi o'rtasida hamkorlikni takomillashtirish nafaqat axoli orasida huquqbuzarliklarning sonini kamaytiradi, balki ularning ongli fuqarolar sifatida shakllanishiga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining asosiy kafolatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR;

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
9. “Huquqbuzarliklar Profilaktikasi” to'g'risidagi qonuni
10. “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 29-noyabrda PF-27-son farmoni.
11. Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”VMQ-801-sonli qarori.

